



**LEGAL FOUNDATIONS OF STATE CONTROL IN
AGRICULTURE: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND
NATIONAL PRACTICE**

JANDULLAEVA GOZZAL NIETULLAEVNA

Head of the Department for Social Protection of Children,
“Inson” Social Services Center, Chimbay District, Republic of
Karakalpakstan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17519068>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 31th October 2025

KEYWORDS

agriculture, state control, legal foundations, SPS Agreement, risk-based approach, Land Code, food safety, digitalization, international experience, institutional fragmentation.

ABSTRACT

The article analyzes the legal foundations of state control in the agricultural sector of Uzbekistan in comparison with international experience. Using the WTO SPS Agreement, and control models in the European Union and the United States as examples, it highlights the advantages of a risk-based approach. The study demonstrates how institutional fragmentation and a prescriptive approach in Uzbekistan’s control system affect its efficiency and substantiates the need for digitalization and integration through a unified platform. The conclusion provides recommendations for introducing a risk-based approach in the agricultural sector, harmonizing authorities, and creating a legal framework aligned with international standards.

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA DAVLAT NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI:
XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT**

JANDULLAEVA GOZZAL NIETULLAEVNA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi
Bolalarni ijtimoiy himoya qilish sho‘basi mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17519068>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Online: 31th October 2025

KEYWORDS

qishloq xo‘jaligi, davlat nazorati, huquqiy asoslar, SPS bitimi, risk-based yondashuv, Yer kodeksi, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamlashtirish, xalqaro tajriba, institutsional fragmentatsiya.

ABSTRACT

Maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida davlat nazoratining huquqiy asoslari xalqaro tajriba bilan solishtirgan holda tahlil qilingan. Jahon Savdo Tashkilotining SPS bitimi, Yevropa Ittifoqi va AQShdagi nazorat modellari misolida xatarga asoslangan yondashuvning afzalliklari yoritiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston nazorat tizimining institutsional fragmentatsiyasi va preskriptiv yondashuvining samaradorlikka ta‘siri ko‘rsatilib, uni raqamlashtirish va yagona platforma orqali integratsiya qilish zarurligi asoslanadi. Xulosa



qismida agrar sohada Risk-Based yondashuvni joriy etish, vakolatlarni uyg'unlashtirish va xalqaro standartlarga mos huquqiy zamin yaratish bo'yicha takliflar berilgan.

Kirish. Zamonaviy global oziq-ovqat xavfsizligi tizimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini, yer resurslaridan oqilona foydalanishni hamda fitosanitariya talablarini ta'minlash davlatning eng asosiy huquqiy majburiyatlari sirasiga kiradi. Qishloq xo'jaligi — bu nafaqat iqtisodiy o'sishning lokomotivi, balki aholi salomatligi va atrof-muhit barqarorligining kafolatidir. Shuning uchun ushbu nazoratning huquqiy asoslari davlatning iqtisodiy barqarorligi, uning investitsion jozibadorligi va xalqaro savdo munosabatlaridagi mavqeini belgilab beruvchi fundamental omil hisoblanadi. O'zbekiston o'z agrar sektori eksport salohiyatini oshirishga intilar ekan, milliy nazorat tizimining xalqaro huquqiy me'yorlarga mosligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi davlat nazorati funksiyalari aniq qonuniy hujjatlar bilan belgilanadi. Milliy nazorat tizimining o'ziga xos jihati shundaki, nazorat ko'plab ixtisoslashgan inspeksiyalar va qo'mitalar o'rtasida taqsimlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi aynan ushbu tor sohada davlat nazoratini amalga oshiruvchi asosiy organlardan biridir.

Vakolalar taqsimotidagi bu institutsional fragmentatsiya (Yer nazorati, Fitosanitariya nazorati, Oziq-ovqat xavfsizligi kabi funksiyalarning turli idoralar orasida bo'linishi) o'z navbatida, tekshiruvlarning takrorlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va huquqiy yukni oshiradi. Eng muhimi, funksiyalarning parchalanishi ma'lumotlar almashinuvini murakkablashtiradi, xatarlarni kompleks baholash imkoniyatini cheklaydi, shu tariqa nazorat resurslarining samarasiz sarflanishiga sabab bo'ladi. Bu holat xalqaro amaliyotda ustuvor hisoblangan xatarga asoslangan nazorat (Risk-Based Approach) modeliga to'liq zid hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi nazoratining eng fundamental huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasida belgilangan bo'lib, ushbu kodeks davlat nazoratining quyidagi asosiy yo'nalishlarini qat'iy belgilaydi: yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash; yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish; yer tuzish, yerlarning monitoringi va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish.

Yer Kodeksidagi bu bandlar milliy nazorat tizimining nafaqat iqtisodiy (samarali foydalanish), balki ekologik (muhofaza qilish) maqsadlarga ham birdek yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu yondashuv, asosan, resursni markazlashgan holda boshqarish tamoyilining huquqiy merosi bo'lib, agrar sohadagi boshqa barcha nazorat turlari (urug' nazorati, mahsulot nazorati) ham aynan Yer Kodeksida belgilangan ushbu resurs ustidan davlatning ustun nazorat huquqidan kelib chiqadi.

Yer munosabatlaridagi huquqiy barqarorlikni ta'minlash uchun Yer Kodeksida yer



uchastkasiga bo'lgan huquqning boshqa shaxsga o'tishi tartibi ko'zda tutilgan. Xususan, korxonaga, binoga, inshootga yoki boshqa ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, ushbu obyektlar band etgan va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq ham birgalikda o'tishi qat'iy belgilangan. Bu holat nazorat jarayonlarida yer ajratish va maqsadli foydalanishdagi o'zgarishlarni doimiy ravishda davlat reestrda aks ettirishni huquqiy jihatdan talab etadi.

Xalqaro savdoda esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari nazoratining huquqiy asosi Jahon Savdo Tashkilotining (JST) Sanitariya va Fitosanitariya (SPS) bitimi hisoblanadi. SPS bitimi har bir mamlakatga o'z aholisini, o'simliklar va hayvonot dunyosini himoya qilish uchun chora-tadbirlar ko'rishga ruxsat beradi, biroq bu chora-tadbirlar mutlaqo ilmiy asoslangan bo'lishi va savdoga asossiz to'siqlar yaratmasligi shart.

SPS bitimi milliy nazorat tizimlarini xatarlarga asoslangan yondashuv (Risk-Based Approach) asosida qurishni talab qiladi. O'zbekistonda tamg'alash va mahsulot sifatiga doir qonunlar ma'lumot shaffofligi borasida yuqori talablarni qo'yish bilan SPS tamoyillariga qisman mos kelsa-da, ularning ijrosi (tekshiruv turlari va chastotasi) qanchalik xatarga asoslangani chuqur huquqiy tahlilni talab qiladi. Xalqaro amaliyotda nazorat yuridik shaxsga emas, balki tarixiy muvofiqlik darajasi (compliance record) yoki mahsulotning o'ziga xos xavfi (masalan, bolalar oziq-ovqati) asosida, aniq xavf manbasiga qaratiladi.

Bu borada rivojlangan mamlakatlarning nazorat tizimlarini o'rganish O'zbekiston tizimidagi institutsional fragmentatsiyaning oqibatlarini tushunishga yordam beradi.

Masalan, EI nazorat tizimi to'liq integratsiyalashgan va "Fermadan Dasturxongacha" (Farm-to-Fork) tamoyiliga asoslangan. Elning 178/2002-sonli Reglamenti oziq-ovqat zanjirining barcha ishtirokchilarining yuridik javobgarligini mustahkamlaydi va yagona, markazlashgan xavfni baholash tizimini nazarda tutadi. EI modeli O'zbekistonning bir nechta idora tomonidan amalga oshiriladigan fragmentatsiyalangan tizimiga qarama-qarshi o'laroq, yagona ma'lumotlar bazasi va yagona huquqiy standartlar orqali boshqariladi.

AQSH modelida vaziyat sal boshqacharoq namoyon bo'ladi. Nazorat USDA (Qishloq xo'jaligi departamenti) va FDA (Oziq-ovqat va Dori-darmon ma'muriyati) o'rtasida taqsimlangan bo'lib, institutsional taqsimot O'zbekistonga o'xshash bo'lsa-da, ularning vakolatlari yuqori darajadagi federal qonunlar bilan aniq chegaralangan va nazorat tizimlari raqamli integratsiyalashgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samaradorlik va shaffoflikka nazorat jarayonlarini raqamlashtirish va shu orqali huquqiy mexanizmlarni yaratish orqali erishiladi. Masalan, yer resurslari monitoringi va davlat yer kadastrini yuritilishi O'zbekiston qonunchiligida belgilangan bo'lib¹, bu tizimlarni raqamlashtirish orqali yerlardan foydalanish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatlari kengaytiriladi. Nazoratning ushbu yo'nalishini kuchaytirish milliy nazoratning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari qatorida O'zbekiston ham qishloq xo'jaligi nazorati

¹ O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 4-bob. <https://lex.uz/docs/-152653>



tizimini xalqaro me'yorlarga moslashtirishda ayirim huquqiy to'siqlarga duch kelmoqda.

Birinchidan, **preskriptivlikdan xatarga asoslangan yondashuvga o'tishdagi qiyinchilik** mavjud. O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi an'anaviy tarzda aniq, preskriptiv ko'rsatmalarga asoslangan. Bu ayniqsa tamg'alash talablari yoki Yer kodeksidagi yerlardan foydalanish tartibi kabi detallarda yaqqol ko'rinadi. Bu yondashuv ishlab chiqarish jarayonini markazdan nazorat qilishga asoslangan sobiq sovet huquqiy an'anasining merosidir. Aksincha, xalqaro me'yorlar ishlab chiqaruvchilarga belgilangan xavfsizlik natijalariga erishish uchun usulni tanlashda ko'proq huquqiy erkinlik beradi. Xatarga asoslangan nazorat modelini joriy etish uchun mavjud normativ-huquqiy bazani (Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Qonunlar) qayta ko'rib chiqish, ya'ni "qoidalar"ni "natijalar"ga yo'naltirish kerak.

Ikkinchidan, yuqorida aytib o'tilgan nazoratning institutsional fragmentatsiyasi xalqaro amaliyot talab qiladigan yagona oziq-ovqat xavfsizligi organini shakllantirishga huquqiy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Bu esa xalqaro tan olinadigan sertifikatlash uchun huquqiy zamin yaratish jarayonini sekinlashtiradi.

Shunday ekan, milliy nazorat tizimining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi huquqiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir:

1. Yer monitoringi, urug' nazorati va mahsulot xavfsizligi ma'lumotlarini integratsiya qiluvchi yagona, raqamli platformani yaratish lozim. Huquqiy jihatdan bu platformaning ma'lumot almashinuvi tartibi, xavfni baholash me'yorlari va nazorat resurslarini taqsimlash metodologiyasini belgilovchi maxsus Hukumat Qarori zarur. Bu nazoratning obyektini rasmiy hujjatlarga rioya etish emas, balki haqiqiy xavf manbai bo'lishini ta'minlaydi.

2. Nazorat organlarining resurslarini tejash va tadbirkorlik subyektlarining huquqiy yukini kamaytirish maqsadida, faqat ma'lum bir xavf guruhiga kiruvchi subyektlarga nisbatan chastotali va chuqur tekshiruvlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash kerak. Masalan, eksportbop mahsulotlar uchun biologik himoya usullarini qo'llamaydigan subyektlar² yoki mahsuloti tez-tez noto'g'ri tamg'alanadigan korxonalar bunday yuqori xavf guruhiga kiritilishi ehtimoli mavjud.

Xulosa. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida nazorat tizimi mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, u Yer kodeksi, Oziq-ovqat xavfsizligi va Urug'chilik to'g'risidagi qonunlar bilan belgilangan. So'nggi yillarda davlat ushbu sohada xalqaro standartlarga, xususan SPS me'yorlariga moslashish bo'yicha amaliy qadamlarni tashlamoqda. Shuningdek, iste'molchi huquqlarini himoya qilish, mahsulot tamg'asida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha me'yoriy talablar kuchaytirildi.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, nazorat funksiyalarining turli idoralar o'rtasida bo'linib ketganligi va ayrim huquqiy me'yorlarning ortiqcha tafsilotlarga berilganligi amaldagi tizimning samaradorligini pasaytiradi. Natijada xalqaro tajribada qo'llaniladigan xatarga asoslangan (Risk-Based) yondashuvni to'liq joriy etish qiyinlashmoqda. Shu sababli, nazorat jarayonlarini soddalashtirish, vakolatlarni aniq

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.08.2025 yildagi 520-son. <https://lex.uz/docs/-7691790#-7691819>



belgilash va nazoratni eng muhim xavf mavjud sohalarga yo'naltirish zarur.

Kelgusida qishloq xo'jaligi nazoratini takomillashtirishda uch yo'nalishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- nazorat organlari vakolatlarini uyg'unlashtirish va takrorlanishni bartaraf etish;
- Risk-Based yondashuvni barcha normativ hujjatlar uchun asosiy tamoyil sifatida joriy etish;
- Codex Alimentarius standartlariga mos xalqaro akkreditatsiya tizimi uchun huquqiy zamin yaratish.

Ushbu chora-tadbirlar qishloq xo'jaligi nazoratini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, eksport salohiyatini oshirish va agrar sohada huquqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 4-bob. <https://lex.uz/docs/-152653>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.08.2025 yildagi 520-son. <https://lex.uz/docs/-7691790#-7691819>
3. O'zbekiston Respublikasining 16.02.2019 yildagi O'RQ-521-sonli «Urug'chilik to'g'risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4202718>
4. World Trade Organization (WTO). Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement). https://www.wto.org/english/tratop_e/sps_e/spsagr_e.ht
5. Kenjayev, R.X. Yer huquqi [Matn]: o'quv qo'llanma / Kenjayev Rustam Xaydarovich. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 312 b. <https://library-tsul.uz/yer-huquqi-kenjayev-r-2023/>